Aksincha, qoraqalpoq tilidagi terminologiya milliy pedagogik kontekstga moslashgan bo‘lib, ularning yasalishi ko‘proq morfologik qo‘shimchalar, qoshma so‘zlar va tarjima orqali amalga oshadi. Shu bilan birga, qoraqalpoq terminologiyasining rivojlanish bosqichi hali yakunlanmagan bo‘lib, u xalqaro pedagogik standartlarga moslashish va zamonaviy tushunchalarni integratsiya qilish imkoniyatlariga ega.

Bundan tashqari, tadqiqot semantik guruhlar bo‘yicha terminlarning pedagogika, psixologiya, didaktika, metodika, baholash va ta’lim texnologiyalari yo‘nalishlarida turlicha taqsimlanganini ko‘rsatdi. Bu esa terminlarning ma’no qamrovi va funksionalligi turli pedagogik sohalarda o‘ziga xos ekanligini bildiradi. Shu asosda pedagogik tarjima, lug‘at yaratish, darslik tayyorlash va ta’lim metodikasini rivojlantirishda amaliy qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlar paydo bo‘ladi. Shu bilan birga, ikki til o‘rtasidagi qiyosiy tahlil tilshunoslik va pedagogik amaliyotda terminlarni aniq va to‘g‘ri qo‘llashga, shuningdek, milliy tilni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilida pedagogik terminlar asosan affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartmalar orqali shakllanadi, shu bilan birga, qoraqalpoq tilida ular ko‘proq qo‘shimchalar va tarjima yordamida yaratiladi. Ingliz tilidagi terminologiya global, tizimli va standartlashtirilgan bo‘lsa, qoraqalpoq tilidagi terminologiya milliy kontekstga moslashgan va rivojlanish bosqichida. Shu bois kelgusida qoraqalpoq tilidagi terminlarni standartlashtirish va zamonaviy pedagogik tushunchalar bilan moslashtirish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik lug‘atlar yaratish, darsliklarni tayyorlash va pedagogik tarjimada aniqlikni ta’minlashda ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijada ikki til o‘rtasidagi qiyosiy yondashuv terminologik izchillikni oshirish, pedagogik tushunchalarni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bayburova Sh., Takonayev N. Pedagogikadan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologiya lug‘ati. T., 1963.

(2). Berdimuratov E. Qoraqalpoq terminologiyasi. Nukus, “Qoraqalpog‘iston”, 1989, 13-bet.

(3). Berdimuratov E., Qutlimuratov B. Maktab turmushiga oid terminlarning ruscha-qoraqalpoqcha qisqacha lug‘ati. Nukus, “Bilim”, 1993, 8-bet.

(4). Crystal D. (2018). The Cambridge encyclopedia of the English language. Cambridge university press.

(5). Halliday M.A.K., & Hasan R. (1989). Language, context, and text: Aspects of language in a social-semiotic perspective. (No Title).

(6). Tajimuratov A. Qoraqalpoq xalq pedagogikasi. Nukus, “Bilim”, 1996.

(7). Tursunov U. Teminologiya masalalari. Toshkent, 1933.

(8). Widdowson H.G. (1990). Aspects of language teaching.

Xolmatov Davrbek Mavlonovich (“Madinabonu Robiyabonu hamkor” nodavlat ta’lim muassasasi Ingliz tili o‘qituvchisi)

INGLIZ VA O‘ZBEK BADIIY MATNLARIDA ICHKI MONOLOGNING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida ichki monologning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot ichki monologning qahramonlarning ruhiy kechinmalari, shaxsiy dunyosi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasini ifodalashdagi funksiyalariga e’tibor qaratadi. Badiiy matnlarda ichki monologning turli janrlarda – nasr, she’riyat, ertak va epistolyar ijodda – namoyon bo‘lishi, uning strukturaviy va stilistik xususiyatlari, shuningdek, lingvistik va pragmatik vositalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ichki monologning qahramon psixologiyasini ochish va badiiy matnga epistemik va afektiv qiymat berishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ichki monolog, lingvopragmatika, badiiy matn, ruhiy kechinmalar, shaxsiy dunyo, modernizm, epistolyar ijod, metafora.*

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВНУТРЕННЕГО МОНОЛОГА В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ

Аннотация. *В данной статье анализируются лингвопрагматические особенности внутреннего монолога в английских и узбекских художественных текстах. Исследование сосредоточено на функциях внутреннего монолога в выражении эмоциональных переживаний персонажей, их личного мира и взаимодействия с социальной средой. Рассматривается проявление внутреннего монолога в различных жанрах – прозе, поэзии, сказках и эпистолярном письме, а также его структурные и стилистические особенности, а также лингвистические и прагматические средства. Результа-*

ты показывают значимость внутреннего монолога для раскрытия психологии персонажей и придания литературному тексту эпистемической и аффективной ценности.

Ключевые слова: *внутренний монолог, лингвопрагматика, художественный текст, эмоциональные переживания, личный мир, модернизм, эпистолярное творчество, метафора.*

LINGUOPRAGMATIC FEATURES OF INTERNAL MONOLOGUE IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY TEXTS

Annotation. *This article analyzes the linguopragmatic features of internal monologue in English and Uzbek literary texts. The study focuses on the functions of internal monologue in expressing the characters' emotional experiences, personal world, and interaction with the social environment. The manifestation of internal monologue in different genres – prose, poetry, fairy tales, and epistolary writing – is examined, along with its structural and stylistic features, as well as linguistic and pragmatic tools. The findings demonstrate the significance of internal monologue in revealing the psychology of characters and in providing epistemic and affective value to the literary text.*

Keywords: *internal monologue, linguopragmatics, literary text, emotional experiences, personal world, modernism, epistolary writing, metaphor.*

Kirish. Ichki monolog badiiy matnlarda qahramonlarning shaxsiy fikr va his-tuyg‘ularini aks ettirishning asosiy vositalaridan biri sifatida e’tiborga olinadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ichki monologning lingvopragmatik xususiyatlari, uning psixologik tahlil va narrativ tuzilishga ta’siri, shuningdek matnning janr va uslubiy kontekstiga moslashishi keng tadqiq etilgan. Ingliz va o‘zbek adabiyotidagi ilmiy tadqiqotlar ichki monologning turli shakllari – to‘g‘ridan to‘g‘ri, bilvosita va erkin bilvositaning qahramonlar ruhiy dunyosini ochishdagi funksiyalarini yoritadi. Tadqiqotning maqsadi ichki monologning lingvopragmatik jihatlarini tizimli tarzda aniqlash va ingliz va o‘zbek badiiy matnlardagi o‘xshash va farqli tomonlarini taqqoslashdir.

Adabiyotlar tahlili. Ichki monolog badiiy asarlarda qahramonlarning ruhiy olamini, fikrlarini va kechinmalarini ifoda etishning muhim vositalaridan biri sifatida zamonaviy adabiyotshunoslikda keng o‘rganilmoqda. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ichki monologning lingvopragmatik xususiyatlarini turli yondashuvlar asosida tahlil qiladi. S.S.Komilovich “Insoniy ehtiroslar zalvori” romani misolida ichki monologning psixologik tahlildagi rolini tadqiq etgan. Olim asarda ichki monolog orqali qahramonlarning murakkab ruhiy holatlarini aks ettirish mexanizmlarini ko‘rsatib beradi. Tadqiqotda ta’kidlanishicha, ichki monolog qahramonning shaxsiy dunyosiga kirib borish imkoniyatini yaratadi va psixologik tahlilning asosiy instrumenti bo‘lib xizmat qiladi [1]. Muallif ichki monologning poetik xususiyatlarini tahlil qilar ekan, uning narrativ strukturadagi o‘rnini ham alohida ta’kidlaydi.

Modernizm adabiyotida ichki monologning tutgan o‘rni alohida ahamiyatga ega. Modernistik asarlarda inson ichki dunyosining ifodasi masalasini o‘rganib, XX asr adabiyotida ichki monologning yangi shakllari va funksiyalarini aniqlagan. Modernizm oqimida ong oqimi texnikasi va ichki monolog o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatib, bu uslubning inson ruhiyatini chuqur ochib berishdagi imkoniyatlarini asoslangan [2]. Modernist adabiyotda ichki monolog odatda parcha-parcha fikrlar, associativ bog‘lanishlar va mantiqiy ketma-ketlikning buzilishi bilan tavsiflanadi. O‘zbek adabiyoti kontekstida O.E.Jalilov O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida qahramonlar ichki dunyosining tahlilini amalga oshirgan. Tadqiqotchi ichki monolog vositasida yozuvchining qahramonlar ruhiy kechinmalarini qanday jonlantirganini ko‘rsatadi va ulardagi ziddiyatli his-tuyg‘ularning ifoda topishini tahlil qiladi [3]. Asarda ichki monolog personajlarning ijtimoiy hayot bilan shaxsiy irodasi o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

She’riyatda ichki holatlarning badiiy ifodasi masalasi E.Sh.O‘roqova tomonidan Usmon Azim ijodi misolida o‘rganilgan. Tadqiqotchi she’riy matnlarda inson ruhiyati ifoda vositalarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan va lirik qahramon ichki dunyosining lingvistik tahlilini bergan [4]. She’riyatda ichki monolog, ko‘pincha, metaforik til va ramziy obrazlar orqali amalga oshiriladi, bu esa uni nasriy matnlardagi ichki monologdan farqlaydi. Jahon adabiyoti tajribasida M.J.Nematjonazarova Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” romanidagi ichki monolog va hissiy nutq xususiyatlarini tadqiq qilgan. Olima asarda ichki monologning epistolar janr bilan uyg‘unligi va hissiy nutqning grammatik-stilistik vositalarini tahlil qiladi [5]. Romanda qahramonning kechinmalari xatlar shaklidagi ichki monologlar orqali namoyon bo‘lib, bu klassik adabiyotda ichki holatlarni ifodalashning o‘ziga xos uslubini namoyish etadi.

Rus tilshunosligida S.Y.Mamedova ingliz adabiyotida ichki monologning tarixiy rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan. Tadqiqotchi ingliz adabiyotida XIX asrdan boshlab ichki monologning ahamiyati ortganini va uning turli shakllari rivojlanganini ko‘rsatadi [6]. Ingliz adabiyotida ichki mo-

nolog koʻpincha erkin bilvosita nutq orqali amalga oshiriladi va qahramonning ong jarayonlarini bevosita aks ettiradi. G.Z.Imayeva ertaklarda ichki monologlardan foydalanishning oʻziga xosligini tahlil qilgan. Olima folklorning shu janrida ichki monologning funksional xususiyatlari va frazeologik vositalarini aniqlagan [7]. Ertaklarda ichki monolog qahramonning qaror qabul qilish jarayonini koʻrsatish va voqealarni rivojlantirishga xizmat qiladi, lekin u klassik adabiy asarlardagiga nisbatan soddaroq strukturaga ega boʻladi.

T.Y.Larina va I.A.Kudryashovlarning birgalikdagi tadqiqoti badiiy matndagi ichki monolog modellarini sistemali tahlil qilishga bagʻishlangan. Olimlar ichki monologning turli tipologiyalarini ishlab chiqib, har bir modelning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlagan [8]. Tadqiqotda ichki monologning toʻgʻridan toʻgʻri, bilvosita va erkin bilvosita shakllari ajratiladi hamda ularning matn tuzilishidagi funksiyalari tavsiflanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot sifatida sifatli tahlil metodologiyasiga tayangan. Asosiy maʼlumot manbalari sifatida ingliz va oʻzbek badiiy matnlaridagi ichki monolog namunalaridan foydalangan. Tadqiqot jarayonida lingvistik tahlil orqali ichki monologlarda ishlatiladigan leksik, morfologik va sintaktik vositalar aniqlangan, jumladan, qahramonlarning ichki fikrlarini ifodalashda qoʻllaniladigan feʼl shakllari, predikativ konstruksiyalar va bogʻlovchi elementlar oʻrganilgan. Shuningdek, pragmatik tahlil yordamida ichki monolog qahramon shaxsiy dunyosini ochish, voqea kontekstida ruhiy kechinmalarini ifodalash va oʻquvchi bilan epistemik aloqani taʼminlash funksiyasini oʻrgangan. Tadqiqot davomida ingliz va oʻzbek matnlaridagi ichki monologning janr, stilistik va lingvopragmatik xususiyatlari sistematik tarzda solishtirilgan. Korpus tahlil yordamida nasr, sheʼriyat, ertak va epistolar matnlarda ichki monologning turli shakllari tizimli ravishda aniqlangan, ularning strukturaviy oʻziga xosliklari, afektiv va epistemik funksiyalari tahlil qilingan hamda tasniflangan. Shu bilan birga, har bir janrdagi ichki monologning badiiy matn mazmuni va oʻquvchiga yetkaziladigan emotsional taʼsiri alohida koʻrib chiqilgan.

Tahlil natijalari. Tahlil natijalari koʻrsatadiki, nasrda ichki monolog qahramonning shaxsiy dunyosini va ijtimoiy hayot bilan ichki toʻqnashuvlarini ifodalaydi. Oʻzbek adabiyotida, masalan, O.E.Jalilovning tahlillari asosida ichki monolog qahramonning murakkab ruhiy kechinmalarini jonli aks ettiradi. Ingliz adabiyotida ichki monolog, koʻpincha, erkin bilvosita nutq orqali amalga oshadi va qahramon ong jarayonlarini bevosita aks ettiradi. Sheʼriyatda lirik qahramonning ruhiy kechinmalari metafora, ramziy obrazlar va poetik vositalar orqali ifodalanadi, bu esa uni nasriy matnlardagi ichki monologdan ajratib turadi. Ertak va epistolar ijodda ichki monolog qahramon qaror qabul qilish jarayonini va voqealarni rivojlantirishni koʻrsatadi, biroq struktura jihatdan sodda boʻladi. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, ichki monologning turli shakllari qahramon psixologiyasini ochishda va badiiy matnning afektiv, epistemik hamda dramatik taʼsirini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa. Ingliz va oʻzbek badiiy matnlarida ichki monolog qahramonlarning ruhiy olami, shaxsiy dunyosi va ijtimoiy kontekst bilan oʻzaro aloqasini ifodalashning samarali vositasi ekanligi aniqlangan. Nazariyalar shuni koʻrsatadiki, nasr, sheʼriyat va epistolyar ijodda ichki monologning lingvopragmatik xususiyatlari turlicha namoyon boʻladi, ammo uning asosiy funksiyasi – qahramon psixologiyasini ochish va oʻquvchi bilan epistemik aloqani taʼminlash bir xil boʻlib qoladi. Natijalar ichki monologni zamonaviy badiiy tahlilda psixologik, lingvistik va pragmatik kontekstda chuqur oʻrganish zaruratini koʻrsatadi, shuningdek, bu yoʻnalish kelajakda tarjima, pedagogika va adabiy tahlil amaliyotida qoʻllanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

(1). Komilovich S.S. “Insoniy ehtiroslar zalvori” romanida psixologik tahlil va ichki monolog poetikasi International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. 2025, p. 186–192.

(2). Bunyodbek N. Modernizm adabiyotida insonning ichki dunyosi va ruhiy kechinmalari. Interdiscipline innovation and scientific research conference. 2024, t. 2, №.23, p. 22–25.

(3). Ergashevich J.O. Oʻtkir Hoshimovning “ikki eshik orasi” asarida qahramonlar ichki dunyosi tahlili Новости образования: исследование в XXI веке. 2025, т. 4, №.39, с. 85–87.

(4). Shuhratovna O.E. Sheʼriyatda inson ruhiyatining badiiy ifodasi (Usmon Azim sheʼriyati misolida). Conference of modern science & pedagogy. 2025, t. 1, №.6, c. 418–422.

(5). Jumanazarovna N.M. “Yosh Verterning iztiroblari” romanida ichki monolog va hissiy nutq. Modern education and development. 2026, 41-j, №.3, c. 260–266.

(6). Мамедова С.Я.. "Внутренний монолог в английской литературе". The Scientific Heritage, no. 90, 2022, pp. 89–92.

(7). Имаева Г.З.. "Своеобразие применения внутренних монологов в сказках". Вестник Башкирского университета, vol. 15, № 1, 2010, pp. 110–112.